

# MOYLI KUNGABOQARNING NAVRO‘Z VA SAM QXI 20-80 NAVLARINING O‘SISHI VA RIVOJLANISHI

**Soatov Azamat Abdualim o‘g‘li**, mustaqil izlanuvchi  
Termiz davlat muxandsilik va agrotexnologiyalar universiteti  
ORCID ID: 0009-0002-8709-657X

**Niyazimbetov Valijan Batirbayevich**, tadqiqotchi  
Toshkent davlat agrar universiteti

**Eshonqulov Jamoliddin Saporboy o‘g‘li**, qishloq xo‘jaligi fanlari doktori, professor  
Toshkent davlat agrar universiteti  
ORCID ID: 0000-0002-4612-5277

**Annotatsiya.** Maqolada Surxondaryo viloyatining taqir o‘tloqi tuproqlari sharoitida moyli kungaboqarning Navro‘z va Sam QXI 20-80 navlarini egatlab va tomchilatib sug‘orish texnologiyasida yetishtirish va kungaboqar navlari urug‘lari ununchanligi, o‘sishi va rivojlanish fazalari bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

**Kalit so‘zlar:** moyli kungaboqar navlari, egatlab sug‘orish, tomchilatib sug‘orish, o‘sish, rivojlanish.

**Аннотация.** В статье представлены данные по выращиванию масличных сортов подсолнечника Навруз и Сам QXI 20-80 с использованием технологии бороздкового и капельного орошения в условиях тапирных луговых почв Сурхандарьинской области. Рассматриваются показатели урожайности, фазы роста и развития данных сортов.

**Ключевые слова:** сорта масличного подсолнечника, бороздковое орошение, капельное орошение, рост, развитие.

**Abstract.** The article presents research on the cultivation of oil sunflower varieties Navruz and Sam QXI 20-80 using furrow and drip irrigation methods under the clayey meadow soil conditions of the Surkhandarya region. It provides data on their productivity, growth, and development stages.

**Keywords:** oil sunflower varieties, furrow irrigation, drip irrigation, growth, development.

**Kirish.** Kungaboqar o‘simligi yer sharining ko‘plab mamlakatda yetishtirilib kelinmoqda. Ekin maydoni o‘rtacha 25-26 mln. gektarni tashkil etadi va o‘rtacha urug‘ hosildorligi 40,5-42,0 mln. tonnaga teng. Mazkur o‘simlikdan jaxonda 5 ta mamlakatda Ukrainada 30%, Rossiyada 24%, Kanadada 18,5%, Argentinada 7% hamda Turkiyada 6% kungaboqar moyi ishlab chiqariladi. Moyli kungaboqar AQSh, Janubiy Afrika va Avstraliya kabi mamlakatlarda ham yetishtirib kelinmoqda. Bugungi kunda o‘sib borayotgan dunyo aholisini asosiy qismi kungaboqar o‘simligi moyini iste‘mol qilib kelmoqda. Shu jumladan bizning sharoitda ham asosan kungaboqar moyi iste‘mol qilinadi, shu boisdan global iqlimning keskin o‘zgarishi, suv resurslarining chegaralangilini inobatga olib Surxondaryo viloyatining taqir o‘tloqi tuproqlari sharoitida o‘simlik navlarining maqbul sug‘orish tartiblari jumladan tejamkor tomchilatib sug‘orish bo‘yicha dala tajribalarini olib borish agrar sohaning asosiy masalasi hisoblanadi.

**Natijalar va munozara.** Moyli kungaboqar navlarini Surxondaryo viloyatining taqir o‘tloqi tuproqlari sharoitida takroriy ekin sifatida yetishtirishda egatlab va tomchilatib sug‘orishlar o‘tkazilishi natijasida kungaboqar o‘simligining Navro‘z va Sam QXI 20-80 navlarining o‘sishi rivojlanishi bo‘yicha dala tajribalari o‘tkazildi. Moyli kungaboqarni takroriy ekin sifatida yetishtirish bo‘yicha tadqiqotlarda sug‘orish oldi tuproq namligi ChDNSga nisbatan 70-70-60% tartib bo‘yicha egatlab sug‘orishlar o‘tkazilganda kungaboqarning Navro‘z navi unib chiqishdan to pishigacha bo‘lgan davrda 76 kunni tashkil etgan, bu unib chiqishdan bir juft barg hosil qilish davri 7 kun, bir juft barg hosil qilish-savatcha hosil qilish davri 23 kun, savatcha hosil bo‘lishidan gullash fazasigacha 14 kun va gullash-pishish fazalari 32 kundan iborat bo‘lganligi aniqlangan. Sug‘orishlar 70-75-70 % va 65-70-60% tartiblar bo‘yicha rivojlanish fazalariga bo‘yicha unib chiqishdan pishishgacha bo‘lgan kunlar soni 79 va 75 kundan

iborat bo‘lganligi, ushbu ko‘rsatkchilar yuqoridagi sug‘orish tartiblari va tajriba variantlariga mos ravishda Sam QXI 20-80 navida unib chiqishdan, pishishgacha bo‘lgan davrlar 76, 82 va 76 kunlardan iborat bo‘lganligi aniqlandi.

Tajribaning tomchilatib sug‘orishla o‘tkazilgan variantlarida moyli kungaboqarning Navro‘z navi sug‘orish oldi tuproq namligi 70-70-60% tartibda nazorat variantda pishish davri 78 kun, sug‘orishlar 70-75-70% tartib bo‘yicha 81 kun, sug‘orish oldi tuproq namligi 65-70-60% bo‘yicha o‘tkazilganda 76 kunda pishgan, yuqorida keltirib o‘tilgan sug‘orish tartiblariga mos ravishda Sam QXI 20-80 navi ekilgan tajribaning 9-variantida unib chiqish bir juft barg hosil qilishgacha bo‘lgan davr 7 kun, bir juft barg hosil qilish-savatcha hosil bo‘lish fazasida 23 kun, savatcha hosil bo‘lish- gullash fazasidagi kunlar 15 kun va gullash-pishish fazasi esa 33 kunni tashkil etgan va umumiy pishish davomiyligi 79 kunni tashkil etdi. Ushbu ko‘rsatkchilar sug‘orish oldi tuproq namligi 70-75-70% tartiblar amalga oshirilganda rivojlanish fazalariga mos ravishda 7, 24, 17 va 34 kunlardan iborat bo‘lgan va jami 82 kunda moyli kungaboqar urug‘i yetishtirildi.

Tomchilatib sug‘orishlar o‘tkazilgan sug‘orish oldi tuproq namligi 65-70-60% bo‘lganda unib chiqish-1 juft barg hosil qilishgacha bo‘lgan davr 7 kunni, bir juft barg hosil qilish-savatcha hosil bo‘lish davri 24 kunni, savatcha hosil bo‘lish gullash 13 kunni va gullash-pishish davri 31 kunni tashkil qilgan va umumiy vegetatsiya davri 75 kunda urug‘ hosili pishganligi aniqlandi.

Tomchilatib sug‘orishlar o‘tkazilgan sug‘orish oldi tuproq namligi 65-70-60% bo‘lganda unib chiqish bir juft barg hosil qilishgacha bo‘lgan davr 7 kunni, bir juft barg hosil qilish-savatcha hosil bo‘lish davri 24 kunni, savatcha hosil bo‘lish- gullash 13 kunni va gullash-pishish davri 31 kunni tashkil qilgan va umumiy vegetatsiya davri 75 kunda urug‘ hosili yetishtirildi.

## Kungaboqar navlarining unuvchanligi, o'sishi va rivojlanish fazalarining davomiyligi (o'rtacha 2023-2024 yy.)

№	Sug'orish variantlar (ChDNS ga nisbatan)	Rivojlanish fazalari orasidagi davrlar, kun					
		ekish-unib chiqish	unib chiqish 1 juft barg hosil qilish	1 juft barg hosil qilish savatcha hosil bo'lish	savatcha hosil bo'lish gullash	gullash-pishish	o'suv davri (unib chiqish-pishish)
<b>Egatlab sug'orish</b>							
<b>Navro'z navi</b>							
1	70-70-60	6	7	23	14	32	76
2	70-75-70	6	7	24	15	33	79
3	65-70-60	6	7	24	14	30	75
<b>Sam QXI 20-80 navi</b>							
4	70-70-60	6	7	23	13	33	76
5	70-75-70	6	7	26	15	34	82
6	65-70-60	6	7	24	13	32	76
<b>Tomchilatib sug'orilgan</b>							
<b>Navro'z navi</b>							
7	70-70-60	6	7	23	14	34	78
8	70-75-70	6	7	25	16	34	81
9	65-70-60	6	7	24	13	32	76
<b>Sam QXI 20-80 navi</b>							
10	70-70-60	6	7	23	15	33	79
11	70-75-70	6	7	24	17	34	82
12	65-70-60	6	7	24	13	31	75

**Xulosa.** Surxondaryo viloyatining taqir o'tloqi tuproqlari sharoitida moyli kungaboqar navlarini parvarishlashda sug'orish oldi tuproq tuproq namligi 70-70-60%, 70-75-70 va 65-70-60% tartiblarda egatlab va tomchilatib sug'orish

bo'yicha dala tajribalari o'tkazilganda 65-70-60% sug'orish tartibi bo'yicha sug'orilgan variantlarda tajribaning boshqa variantlarga nisbatan 5-7 kunga erta kungaboqar urug'i pishganligi aniqlandi.

**ADABIYOTLAR:**

1. O'zbekiston Respublikasi hududida ekish uchun tavsiya etilgan qishloq xo'jalik ekinlari Davlat reestri Toshkent-2023 yil B. 24-25.
2. Abdukurimov D.T., Xalilov N.X., Lukov M.Q., Yuldasheva Z.K va boshqalar. "Kungaboqar yetishtirish texnologiyasi bo'yicha fermerlar uchun tavsiyanoma", Toshkent-2019.-B.11-14.
3. Atabayeva X.N., Yuldasheva Z.K. "Moyli ekinlar biologiyasining ilmiy asoslari va yetishtirishda innovasion texnologiyalar" "Fan va texnologiya" nashriyoti. Toshkent-2019.-B. 21-42.
4. Azizov T.B. Anorboyev I.U. Kungaboqardan mo'l hosil yetishtirish bo'yicha tavsiyalar// Toshkent 2008-B. 16-59 b.
5. Xamidov M.X //Mamataliyev A.B. Moyli ekinlarni tomchilatib sug'orish. Monografiya. Tashkent: "MERIYUS" XMNK, 2015: 120 b.
6. Mamataliyev A // Moyli ekinlarni sug'orishda innovatsion texnologiya AGRO ILM" jurnali, 2020 y., maxsus son (70), 34-35-betlar.
7. To'raqulov O //PhD Disertatsiya ishi avtoreferati-Samarqand-2024. B.5-7 betlar